

ELECTRONIC LETTERS OF CREDIT AND PAYMENT OBLIGATIONS OF BANKS AS
PROMISING PAYMENT TECHNOLOGIES

JUMAEV SHOHJAHON SHOKIROVICH

Researcher

sh.sh.jumayev@gmail.com

Kirish. Raqamli texnologiyalar sharoitida tijorat banklari faoliyatini transformatsiya qilish amaliyotini takomillashtirish banklarning moliyaviy vositachi sifatidagi rolini oshirishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Hozirgi zamon dunyo bank amaliyotida zamonaviy raqamli texnologiyalarni tijorat banklari faoliyatiga joriy etishni takomillashtirish, raqamli texnologiyalar yordamda bank xzmatlarining raqobatbardoshligini oshirish, sof foizli spreadning mezon chegarasiga erishish, daromad keltirmaydigan likvidli aktivlarning optimal darajasini ta'minlash, aktivlarning daromadlilik va risklilik o'rtasidagi monandlikka erishish, bank passivlarining barqarorligiga erishish, tijorat banklari foydasini bozor risklariga ta'sirchanlik darajasini pasaytirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Elektron akkreditivdan foydalanish bankda akkreditiv ochish kabi uzoq davom etadigan jarayonga barham beradi. Chunki, shartnoma elektron shaklda tuziladi va elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanadi. Bundan tashqari, tovarlar bilan bog'liq bo'lgan hujjatlar ham (invoys, yuk xati, sug'urta polisi va boshq.) elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanadi.

Bank to'lov majburiyatlarini tashqi savdoni moliyalashtirishning istiqbolli instrumenti ekanligini Deutsche Bank, Standard Chartered Bank, Bank of Tokyo-Mitsubishi kabi yirik transmilliy banklar amaliyoti isbotlamoqda.

Asosiy qism. Xalqaro savdoda qo'llanilayotgan istiqbolli to'lov texnologiyalaridan biri – bu elektron akkreditiv texnologiyasidir. Elektron akkreditivning an'anaviy akkreditivdan asosiy farqi shundaki, elektron akkreditivda hujjatlar almashuvi elektron aloqa kanallari vositasida amalga oshiriladi, an'anaviy akkreditivda esa, kurerlar orqali jo'natiladigan qog'oz ko'rinishidagi hujjatlarni o'zaro almashuvi tarzida amalga oshiriladi.

Ta'kidlash joizki, hujjatlarni tekshirish texnologiyasi elektron akkreditivda an'anaviy akkreditivdan tubdan farq qilmaydi. Buning sababi shundaki, elektron akkreditivda tovar hujjatlarini elektron tashuvchilar vositasida qabul qilib olgan bank ularni printerdan chiqarib oladi va keyin ularni akkreditiv shartlariga muvofiqligini tekshiradi. An'anaviy akkreditivda ham qog'oz ko'rinishidagi tovar hujjatlari qabul qilib oluvchi bank tomonidan tekshiriladi.

Kuznesovaning fikricha (Kuznesova, 2020), elektron tizimlarni ishlab chiqishda elektron raqamli imzoga alohida e'tibor qaratiladi. Elektron raqamli imzo jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan elektron hujjatga vakolatli shaxsning imzosi va muhr bilan tasdiqlangan qog'oz ko'rinishidagi hujjatning yuridik kuchiga teng bo'lgan yuridik kuch berish maqsadida foydalaniladi.

E'tirof etish joizki, Xalqaro savdo palatasi UCP600 qoidasiga qo'shimcha sifatida eUCP hujjatini ishlab chiqdi. eUCP hujjati tovar hujjatlarini elektron taqdim etish tartibini belgilaydi va u 12 ta moddadan iborat. Mazkur hujjatga muvofiq, elektron akkreditiv xizmatlari eksporter va importer o'rtasidagi tashqi savdo shartnomasi internet-texnologiyalardan foydalangan holda elektron shaklda tuziladi.

Shunisi ahamiyatliki, elektron akkreditivdan foydalanish bankda akkreditiv ochish kabi uzoq davom etadigan jarayonga barham beradi. Chunki, shartnoma elektron shaklda tuziladi va elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanadi. Bundan tashqari, tovarlar bilan bog'liq bo'lgan hujjatlar ham (invoys, yuk xati, sug'urta polisi va boshq.) elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanadi.

T.Masyukova, P.Platonova va Yu.Savinovlar (Masyukova, Platonova, Savinov, 2015) o'tkazgan tahlillar ko'rsatdiki, bir paket hujjatni qog'oz tashuvchilar orqali jo'natish akkreditivda ishtirok etuvchi tomonlarga 75-100 AQSh dollariga tushadi va 3 kundan 7 kungacha vaqtni oladi. Agar akkreditiv shartlari bo'yicha tovarlarni bo'lib-bo'lib jo'natishga ruxsat etilgan bo'lsa, unda taqdim etiladigan hujjatlar soni bir necha marta oshadi. Elektron akkreditivdan foydalanish esa, bunday xarajatlardan xalos bo'lish va eksport tushumini tezda olish imkonini beradi. Buning ustiga, hujjatlarni elektron tashuvchilar vositasida olish xatoliklar, tovlamachiliklar sonini kamaytirish imkonini beradi. Shunday holat bo'lganki, DHL xodimlari mamlakatning kodli belgisida SA (Saudiya Arabistoni) adashib, ushbu belgini USA (AQSh) bilan adashtirib, hujjatlarni Rossiyadan Saudiya Arabistoniga emas, AQShga jo'natib yuborishgan. Elektron akkreditiv tufayli majburiyatning shaffoflik darajasi oshadi va uni qisqa muddatga ochish imkonini yuzaga keladi. Bu esa, akkreditiv ochganlik uchun olinadigan komission to'lov miqdorini kamaytirish imkonini beradi, chunki, ko'pchilik hollarda komission to'lovning miqdori bankning akkreditiv bo'yicha majburiyatining muddatiga bog'liq ravishda o'rnatiladi.

Xalqaro savdodagi to'lov amaliyoti ko'rsatdiki, tijorat banklari tovar hujjatlari birinchi marta taqdim qilinganda ko'p holatda (70-80 %), xatoliklar bo'lganligi uchun, ularni qabul qilmaydi, ya'ni qaytaradi. Ushbu holat hujjatlarni elektron taqdim etishning yana bir afzalligini ko'rsatadi, ya'ni elektron hujjatdagi xatoliklarni tez vaqt ichida to'g'rilash mumkin.

Qayd etish joizki, elektron akkreditiv bo'yicha hisob-kitoblarda ishtirok etuvchi barcha tomonlarni xavfsiz onlayn-platformadan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi tovar hujjatlarini elektron taqdim etish va ularni tekshirish imkonini beradi. Hozirgi davrda dunyo miqyosida bir nechta kompaniya (masalan, GlobalTrade Corporation, essDOCS va The Bolero5 Ecosystem) shunday xizmatlarni ko'rsatadi. Xorijiy banklardan The Royal Bank of Scotland, HSBC, China CITIC Bank, Agricultural Bank of China kabi banklar o'zlarining mijozlariga elektron akkreditiv xizmatini taklif qilayapti (UCP-600, 2007).

E'tirof etish joizki, zamonaviy texnologiyalar elektron akkreditivni bank to'lov majburiyatlarini kompaniyalarning eksport-import amaliyotiga joriy etish uchun zamin yaratadi. Bunda, banklar o'rtasida ma'lumotlarni almashish va hujjatlarni muomalaga chiqarish (konosament, bojxona yuk deklaratsiyasi va boshq.) elektron tarzda amalga oshiriladi. Mazkur hujjatlarni elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanishi ularni soxtalashtirish imkoniyatini keskin pasaytiradi.

An'anaviy akkreditivga muqobil bo'lgan yana bir instrument – bu bank to'lov majburiyatlaridir.

Bank to'lov majburiyatlari (Bank Payment Obligation) – bu majburiyatni qabul qiluvchi tijorat bankining (Obligor Bank) to'lovni qabul qiluvchi bankka (Recipient Bank) to'lovni amalga oshirish to'g'risidagi so'zsiz, chaqirib olinmaydigan majburiyatidir. Buning uchun, birinchidan, majburiyat shartlari bo'yicha to'lov summasi tashqi savdo shartnomasining shartlari bo'yicha to'lov summasiga mos bo'lishi kerak; ikkinchidan, taqqoslash natijasida aniqlangan nomuvofiqliklar majburiyatni qabul qiluvchi bank tomonidan akseptlangan bo'lishi kerak.

Yu.Savinov, T.Masyukova va K. Krivonojkinlarning (Savinov, Masyukova, Krivonojkin) fikriga ko'ra, Xalqaro savdo palatasi bank to'lov majburiyatlaridan foydalanish tartibini belgilab beruvchi Umumlashtirilgan qoidalarni (Uniform Rules for Bank Payment Obligations) chiqardi. Mazkur qoidalarga ko'ra, tarkibiy jihatdan tartiblangan ma'lumotlarni moliyaviy to'lov operatsiyasida ishtirok etuvchi ikkala tomon o'rtasida elektron almashishning mavjudligi ma'lumotlarni taqqoslash imkonini beradi. Bunda, ma'lumotlarni o'zaro almashish telekommunikatsiya vositalaridan (ISO 20022 format) foydalanishni ko'zda tutadi va inson omilining ishtiroki minimal darajaga keladi. Chunki, ma'lumotlarni taqqoslash elektron tarzda amalga oshadi.

Shunisi ahamiyatliki, bank to'lov majburiyatlarini tashqi savdoni moliyalashtirishning istiqbolli instrumenti ekanligini Deutsche Bank, Standard Chartered Bank, Bank of Tokyo-Mitsubishi kabi yirik transmilliy banklar e'tirof etishmoqda. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 225 ga yaqin moliya institutlari SWIFT TSU banklararo platformasidan foydalanuvchilar sifatida ro'yxatga olingan. 2011 yilning sentyabrida, Bank of China (Shanghai) va Hua Nan Bank (Taiwan) o'rtasida, eksportni qo'llab-quvvatlash maqsadida, bank to'lov majburiyatlari vositasidagi birinchi transchegaraviy tezkor operatsiya muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Shuningdek, British Petroleum, Omron, DAENONG CO., LTD., Köksan Pet Plastik kabi neft-kimyoy, ko'mir sanoati vakillari bo'lgan va elektronika mahsulotlari ishlab chiqaruvchi kompaniyalar ham transmilliy korporatsiyalarning ekspertlari ham bank to'lov majburiyatlari to'g'risida ijobiy fikrlar bildirishgan (Market adoption of BPO, 2024).

Xulosa. Xulosa qilib aytganda:

- xalqaro savdoda qo'llanilayotgan istiqbolli to'lov texnologiyalaridan biri – bu elektron akkreditiv texnologiyasidir;
- hujjatlarni tekshirish texnologiyasi elektron akkreditivda an'anaviy akkreditivdan tubdan farq qilmaydi;
- elektron tizimlarni ishlab chiqishda elektron raqamli imzoga alohida e'tibor qaratiladi. Elektron raqamli imzo jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan elektron hujjatga vakolatli shaxsning imzosi va muhr bilan tasdiqlangan qog'oz ko'rinishidagi hujjatning yuridik kuchiga teng bo'lgan yuridik kuch berish maqsadida foydalaniladi;
- agar akkreditiv shartlari bo'yicha tovarlarni bo'lib-bo'lib jo'natishga ruxsat etilgan bo'lsa, unda taqdim etiladigan hujjatlar soni bir necha martaga oshadi. Elektron akkreditivdan foydalanish esa, bunday xarajatlardan xalos bo'lish va eksport tushumini tezda olish imkonini beradi;

- elektron akkreditiv bo'yicha hisob-kitoblarda ishtirok etuvchi barcha tomonlarni xavfsiz onlayn-platformadan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi tovar hujjatlarini elektron taqdim etish va ularni tekshirish imkonini beradi;

- zamonaviy texnologiyalar elektron akkreditivni bank to'lov majburiyatlarini kompaniyalarning eksport-import amaliyotiga joriy etish uchun zamin yaratadi;

- bank to'lov majburiyatlarini tashqi savdoni moliyalashtirishning istiqbolli instrumenti ekanligini transmilliy banklar amaliyoti yaqqol ko'rsatdi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Кузнецова Т.Е. Цифровизация банковской системы: цифровая трансформация среды и бизнес-процессов // Финансовый журнал. 2020. Т. 12. № 3. С. 91–101.

2. Масюкова Т.Д., Платонова П.С., Савинов Ю.А. Электронный аккредитив и банковское платежное обязательство как альтернатива документарному аккредитиву//Российский внешнеэкономический вестник. – Москва, 2015. - №11. - С. 65-75.

3. Швецов Ю.Г., Сунцова Н.В., Корешков В.Г. Роль коммерческих банков в цифровой экономике // Налоги и финансы. 2018. №4 (40)

4. Market adoption of BPO//http://www.swift.com/assets/corporates/documents/trade_bpo_market_adoption.pdf.